

VOLUME II | ISSUE 2 | FEBRUARY

2024

Journal of Pedagogical and Psychological Studies

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ISSN: 2181-4066



Available online at www.imfaktor.com

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

ТОШКЕНТ - 2024

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

№ 2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4066-2024-2>

Бош муҳаррир:

Нишонова З.

– психология фанлари доктори, профессор

Масъул муҳаррир:

Давлатов Ойбек.

– педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

Таҳририят аъзолари:

1. Юсупова Хабиба Ирискуловна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
2. Олимов Лазиз Ярашович – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
3. Элов Зиёдулло Сатторович – психология фанлари доктори, доцент
4. Ганжиев Феруз Фурқатович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
5. Мусаева Мухаббат Эшбаевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
6. Умаров Баҳром Норбоевич – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
7. Орипова Раънохон Иброхимовна – педагогика фанлари номзоди, доцент
8. Ўринова Феруза Ўлжаевна – педагогика фанлари номзоди, доцент
9. Ниёзова Лутфия Худайбергановна – дефектолог - эксперт
10. Салиева Дилором Абдуллаевна – психология фанлари номзоди
11. Останов Шухрат Шарифович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
12. Рустамов Шавкат Шухратович – психология ф.б.ф.д. (PhD)
13. Халлокова Максудахон Эргашевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
14. Исмаилова Раъно Нураевна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
15. Саримова Дилдора Соаталиевна – педагогика ф.б.ф.д. (PhD), доцент
16. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
17. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д. (PhD), доцент
18. Худайберганов Шухрат Шавкат ўғли – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)
19. Исматова Дилафруз Тўймуратовна – психология ф.б.ф.д. (PhD)
20. Улуғова Шахлола Муслиддиновна – психология фанлари номзоди, доцент
21. Махмудова Зулфия Мехмоновна – психология ф.б.ф.д., (PhD)
22. Ўринова Озодахон Ўлжаевна – педагогика ф.б.ф.д., (PhD)
23. Рўзиёв Умар Музафарович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
24. Останов Жасур Шопиржонович – психология ф.б.ф.д., (PhD)
25. Лола Камоловна Илиева (Бахриддинова) – педагогика фанлари номзоди, доцент
26. Муродова Дурдонахон Райимжон қизи – педагогика ф.б.ф.д. (PhD)

“Педагогик ва психологик тадқиқотлар” журнали 6 та халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун UIF 2023 = 8.2 “импакт-фактор” кўрсаткичига эга. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар хорижий мақолалар сифатида тан олинади.

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор
24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: www.imfaktor.uz/com

Телефон номер: +99894-410 11 55, **E-mail:** tahririyat@imfaktor.uz

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти, 2024 йил.

© Мўаллифлар жамоаси, 2024 йил.

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

TO‘YMANOVA Inobat Fozilovna

ТИПИ

“Tillar va maktabgacha ta’lim fakulteti”

o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10709672>

XORIJIY TILNI O‘QITISHDA “PEN PALS” LOYIHASINING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada xorijiy tillarni o‘qitish va o‘rgatishda “Pen pals (xat yozishadigan do‘st)” loyihasidan foydalanib o‘rganuvchilarning gapirish, yozish, o‘qish hamda eshitish ko‘nikmalarini autentik hamsuhbat va hamkor orqali rivojlantirish va takomillashtirish yo‘llari haqida ma’lumotlar berilgan. Pen Pals – loyihasi dunyo bo‘ylab insonlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan va o‘zini tanitishga imkoniyat yaratadigan qulay tashabbuskorlik loyihasidir. Pen Pals notijoriy loyiha bo‘lib, turli yoshdagi til o‘rganuvchilar undan foydalana oladilar. Shu nuqtayi nazardan, chet elda o‘qish o‘rganilayotgan til ona tili bo‘lgan so‘zlashuvchilar bilan o‘zaro muloqotni osonlik bilan o‘z ichiga oladigan o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Autentik so‘zlashuvchilar o‘rganuvchiga o‘z tilini o‘rgatadilar, til o‘rganuvchi esa ularga ona tilini o‘rgatish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so‘zlar: Pen Pals loyihasi, autentik material, autentik suhbatdosh, autentik muhim, internet sayt, onlayn sahifa, mobil ilova.

“PEN PALS” В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ ЗНАЧЕНИЕ ПРОЕКТА

АННОТАЦИЯ

В данной статье при преподавании и изучении иностранных языков с использованием проекта «Pen Pal» (Друзья по переписке) изучающих, развиваются и совершенствуются навыки говорения, письма, чтения и аудирования через аутентичного собеседника и партнера. Проект «Pen Pal» — удобный инициативный проект, который сближает людей по всему миру и дает возможность представиться. «Pen Pal» — это некоммерческий проект, открытый для изучающих языки всех возрастов. С этой точки зрения обучение за рубежом создает возможности обучения, которые легко предполагают взаимодействие с носителями изучаемого языка. Носители языка учат свой язык, а изучающему язык предоставляется возможность обучать его родному языку.

Ключевые слова: проект «Друзья по переписке», аутентичный материал, аутентичный собеседник, подлинно важное, сайт, онлайн-страница, мобильное приложение.

"PEN PALS" IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING THE IMPORTANCE OF THE PROJECT

ANNOTATION

This article provides the information of development and improve students' speaking, writing, reading and, of course, listening skills using the "Pen Pals" project in teaching and learning foreign languages through native speaker and partner. Given The Pen Pals project is a convenient initiative project that brings people around the world closer to each other and provides an opportunity to introduce oneself. Pen Pals is a non-profit project open to language learners of all ages. From this point of view, studying abroad creates learning opportunities that easily involve interacting with native speakers of the language being studied. Native speakers teach the learner their language, and the language learner is given the opportunity to teach them their native language.

Key words: Pen Pals project, authentic material, authentic interlocutor, authentic important, website, site, mobile application.

Bugungi kunda innovatsion pedagogik texnologiyalarga ta'lim jarayonidagi eng samarali vosita sifatida qaralmoqda. Shu jumladan, innovatsion loyihalardan foydalanish xorijiy tillarni o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish va til o'rganuvchilarga qulay autentik muhit yaratish uchun xizmat qilmoqda. Bu kabi loyihalardan dunyo bo'ylab chet tili o'qitish amaliyotida keng foydalanib kelinmoqda. Ingliz tilini o'qitish jarayonida "Pen Pals" loyihasidan foydalanish, undagi yutuq va kamchiliklar o'zbek tadqiqotchilari tomonidan to'la o'rganilmagan yo'nalish hisoblanadi. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitish metodikasining dolzarb masalalaridan biri – ta'limda autentik materiallardan foydalanish bilan bog'liq muammodir. Bu borada jahonda keng tarqalgan tillarning o'qitish metodikasidan boy tajriba to'plangan [1, 2, 3].

Ushbu soha mutaxassislarini, asosan, autentik materiallarni topish va ularni ta'lim jarayonida samarali qo'llash masalasi o'ylantiradi. Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda autentik materiallarni tanlash, til o'rganuvchilar ehtiyojiga moslashtirish va ulardan ta'lim jarayonida maqsadli foydalanish masalalari yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonidagi fikr-mulohazalarni tahlil qilish orqali olingan natijalar bayon etiladi. "Pen Pals" loyihasida mohiyati ham aynan autentik suhbatdosh bilan ishlashda ularning qaysi jihatlariga e'tibor qaratish kerakligi, autentik suhbatdoshning qaysi turlari o'zbek madaniyatiga mos ravishda samara berishi tahlilga tortilgan.

Chili, Finlandiya, Gretsiya va Amerika Qo'shma Shtatlarida o'tkazilgan tajribalardan ma'lum bo'lishicha bu loyiha orqali til o'rganish boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilarga katta ruhlantirish berdi. (Professor Linda Gambel, Clemson Universiteti, AQSh, 2019-yil). Bu ruhlantirish talabalarining til o'rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berdi hamda o'quv yili oxiriga kelib talabalarda bilim darajasi sezilarli tarzda o'zgarganligi kuzatildi. Bu loyiha natijalari ham til o'rganuvchilarning yoshiga qarab turli xil ko'rinishlarda bo'ldi. Xususan, Finlandiya va Gretsiya talabalari orasida natijalar ko'rsatkichi jender bo'yicha kuzatildi. Ushbu eksperiment davlatlar va millatlararo tajriba almashinuvida muhim ahamiyatga hamda til o'rganishda motivatsiyaga sabab bo'ldi.

Maqolada Pen Pals loyihasi orqali uzluksiz muloqotni o'rnatish, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishning afzalliklari va muammolari yoritiladi. Elektron pochta orqali yozishib, xabar almashib turadigan xorijiy sherik doimiy muloqotning uzluksizligini ta'minlaydi, bu esa ikki suhbatdosh orasida ingliz tili muhitini yaratishda muhim ahamiyatga egadir. Bu loyihada ishtirok etuvchi suhbatdoshlar, odatda, tanish bo'lmagan til o'rganuvchilardir, ular faqat xat almashinish yo'li orqali so'zlasha oladilar. "Pen Pals" ingliz tilida "Pen friend" ham deb nomlanadi.

Til o'rganishning bu usuli millatlar va mamlakatlararo madaniyat va urf-odatlar almashinuvini ham ta'minlaydi. Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchining turli davlatlardagi til o'rganuvchilar bilan tajriba almashinuviga yo'l ochadi, shuningdek, til malakasini rivojlantirish uchun ham xizmat qiladi.

Ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda "Pen Pals" loyihasi samarali usullardan biridir. Ingliz tili muhiti yaratilishi qiyin bo'lgan holatlarda, haqiqiy til egasi bilan muloqotni uyushtirish imkoniyati bo'lmagan bir paytda "Pen pals" loyihasi til o'rganuvchilarni doimiy ingliz tilida so'zlashishga imkoniyat yaratib beradi.

"Pen Pals" orqali muloqot qilish ingliz tilini o'rganishdagi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi, masalan, yozish, o'qish, so'zlashish [4].

"Pen Pals" loyihasi doirasida yana bir tajriba katta yoshli til o'rganuvchilarda o'tkazildi va bu o'z ijobiy ta'sirini berdi, ya'ni ularda til o'rganish sifati yaxshilandi. Bu jarayonda til o'rganuvchi volontyor autentik til egasi bilan xat yozishish orqali muloqot olib bordi. Xat almashinuvining asosiy mavzusi adabiyotlarni ijtimoiy-madaniy muhokama qilish bo'ldi. Maqolada autentik til o'rganishning individuallashuvi va til o'rganish bilan doimiy band bo'lishi yoritildi. Bu ilmiy maqolada erishilgan lingvistik va madaniy yutuqlar muhokama qilingan. Ilmiy maqolaning ma'lumotlari "Pen Pal" loyihasi ishtirokchilari orasida o'tkazilgan suhbatlar, savol-javoblar va yozilgan xatlardan olingan. ("Til o'rganishga yaxlit va ijtimoiy-madaniy yondashuv". Klarena Larrotta, Texas Davlat Universiteti professori, Arlene F.Serrano PhD, Texas Davlat Universiteti, 2012-y)

Loyihaning asosiy maqsadlaridan biri – til o'rganish jarayonida o'zbek tili, madaniyati va urf-odatlarini dunyo bo'ylab targ'ib qilishga imkoniyatlar yaratishdir.

Bu loyiha faqatgina talabalar bilan cheklanib qolmasdan, turli yoshdagi til o'rganuvchilarni ham qamrab oladi. Chet el ingliz tili o'qituvchilari bilan aloqaga chiqish ham "Pen Pals" loyihasi orqali bo'lsa uzluksiz ingliz tili muhitini yaratishga yordam beradi.

Loyihaning afzallik taraflari:

- autentik til egasi bilan bo'lgan oddiy muloqot ham, til o'rganuvchiga ahamiyatli amaliy imkoniyatlar yaratadi va til o'rganishda rag'batlantiruvchi hamkor hisoblanadi;
- "Pen Pals" loyihasi imloviy xatolarni to'g'rilashga yordam beradi;
- norasmiy suhbatlar va so'z birikmalarini o'rganish tilni yaxshi biladigan autentik til egasi bilan so'zlashganda ular uchun oddiy suhbatlarda ishlatilganligi uchun til o'rganuvchiga o'rganish osonlashadi;
- Til o'rganuvchi nafaqat chet elda tajriba orttirishi, balki o'z davlatida to'liq tajriba orttirishi mumkin, ba'zida chet elda orttirilgan tajribadan ko'ra muvaffaqiyatli hisoblanadi;

Turli davlat va madaniyatga ega bo'lgan odamlar bilan til o'rganish yuzasidan xalqaro hamdo'stlik aloqalarini o'rnatish ham bu loyihada keng imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi texnologiya va ommaviy axborotlar rivojlanib kelayotgan bir davrda "Pen Pals" loyihasining ijobiy taraflari ko'p bo'lganligi bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud. Asosiy muammolardan biri bu til o'rganuvchi "Pen Pals" loyihasidan foydalanayotganda Internet tarmog'idagi senzurasini to'g'ri kelmaydigan Internet saytlariga ham kirib qolishi mumkinligidir.

Shu bilan birga yana quyidagi muammolarga duch kelishi mumkin:

- insonlar o'zi haqida noto'g'ri ma'lumotlar berib yolg'on gapirishi mumkin,
- Sizdan pul so'rashi yoki talab qilishi mumkin,
- turli sabablar bilan tahdid qilishi mumkin,
- yot radikal yo'nalishlarga undash bo'lishi mumkin,
- uylariga taklif qilishlari mumkin.

Bu muammoning oldini olish uchun Internet tarmog'ining Whatsapp, Skype, Team, Zoom, Facebook messenger, telegram ilovalaridan foydalangan holda til o'rganuvchilarni bir guruhga to'plab yoki yakka tartibda suhbatlar bevosita o'qituvchi ishtirokida tashkil etilishi rejalashtiriladi. Bunda til o'rganuvchi o'qituvchi nazorati ostida bo'ladi [5].

Agar til o‘rganuvchi maktab o‘quvchisi yoki oliygoh talabasi bo‘lsa, yuqorida keltirilgan salbiy sabablarning oldini olish uchun doimiy ravishda o‘qituvchi yoki til o‘rgatuvchi nazoratida bo‘ladi. Elektron pochta yoki ilova orqali yozilayotgan xatlar “screenshot” qilinib, o‘qituvchiga muntazam ravishda yuboriladi.

Izlanishlar “Pen Pals” loyihasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasida qilingan ilmiy ishlar mavjud emasligini ko‘rsatdi. O‘zbekiston hududida ommabop bo‘lgan har xil onlayn ilovalar mavjud. Ushbu ilovalardan foydalanish “Pen Pals” loyihasi kabi onlayn, lekin ishlash tartibi farqli. Ular quyidagilar:

Tandem: Language exchange – til o‘rganish ilovasi bo‘lib, millionlab odamlar bir-biriga o‘zlari o‘rganayotgan xorijiy tilni o‘rgatadilar va fikr almashadilar.

Hilokal Learn Languages n Co – mobil ilova bo‘lib, audio qo‘ng‘iroqlar guruhi tuziladi va o‘rganilayotgan tilni amaliyotda qo‘llash yuzasidan yangi do‘stlar autentik til egasi bilan xorijiy tilda mukammal so‘zlashish imkoniga ega bo‘ladilar.

Let MeSpeak – Learn English – til o‘rganishning onlayn turi hisoblanib, unda xususiy darslar mavjud. Onlayn til o‘rganish guruhlari tuzilib, til o‘rganishga qulayliklar yaratiladi. Til o‘rganish guruhlari ko‘rinishida yoki yakka tartibda bo‘lishi mumkin, bu til o‘rganuvchining xohishiga bog‘liq.

Hello Pal World – onlayn til o‘rganish mobil ilovasi bo‘lib, dunyo bo‘ylab 6.7 million a‘zosi mavjud va ular 200 dan ortiq davlatdandir. Ilova orqali xohlagan vaqtda til o‘rganish yuzasidan suhbatlashish va tajriba almashinishi mumkin.

ITALKI HK LIMITED – Education – onlayn til o‘rganish ushbu platformada o‘quvchi va o‘qituvchilar ishtirok etishadi, unda til o‘rganuvchilar videosuhbat orqali o‘qituvchilar bilan bog‘lanishlari mumkin. O‘qituvchilar o‘zlarining til bo‘yicha tajribalarini taklif qilib, erkin o‘qituvchilar sifatida pul topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti Tillar va maktabgacha ta‘lim fakultetida o‘tkazilgan so‘rovnomalardan shu ayon bo‘ldiki, “Pen Pals” loyihasi haqida o‘qituvchilar ma‘lumotga ega, lekin til o‘rgatishda qo‘llab ko‘rilmagan. Talabalar esa bu loyiha haqida ma‘lumotga ega emas. Yuqori kurs talabalarini yaqindan tanishtirish maqsadida Facebook tarmog‘idagi “Pen Pals for classes” guruhiga a‘zo bo‘lish tavsiya qilindi.

“Pen Pal” almashinuvi bilan shug‘ullanish til o‘rganishning amaliy kontsepsiyasini ta‘minlaydi. Talabalar ona tilida so‘zlashuvchilar bilan muloqot qilish paytida yozish, o‘qish va tushunish qobiliyatlarini mashq qiladilar. Bu tajriba ularning til qobiliyatlarini oshiradi.

Madaniyatlararo xabardorlik ham shular jumlasidandir “Pen Pals” talabalarni turli madaniyatlar, an‘analari bilan tanishtiradi. O‘quvchilar xat almashish orqali “Pen Pals” do‘stlarining kundalik hayoti, urf-odatlarini va qadriyatlarini haqida tushunchalarga ega bo‘ladilar. “Pen Pals” do‘stidan xat olishni kutish o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. O‘quv jarayoniga hayajon qo‘shadi va doimiy muloqotga chorlaydi. So‘zlarni to‘g‘ri yozish, tafakkur qilish va o‘z-o‘zini ifoda etishga undaydi. Talabalar o‘z fikrlarini bayon qilishni, tajriba almashishni, shaxslararo ko‘nikmalarni rivojlantirishni o‘rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, “Pen Pals” loyihasi til o‘rganish, madaniy izlanishlar va mazmunli aloqalarni birlashtirish orqali o‘quvchining ta‘limini boyitadi.

ИҚТИБОСЛАР. СНОСКИ. REFERENCES.

1. “Til o‘rganishga yahlit va ijtimoiy-madaniy yondashuv” maqolasi. Klarena Larrotta, Texas Davlat Universiteti proffessori, Arlene F.Serrano PhD, Texas Davlat Universiteti, 2012y)
2. To‘rtta turli davlatlarda (Chili, Finlandiya, Gretsiya va Amerika Qo‘shma Shtatlari) o‘tkazilgan tajribalar. Professor Linda Gambel, Clemson Universiteti, AQSh, 2019.
3. Elizabeth Hughes_Pennsylvania State University, Penn State · Department of Educational Psychology, Counseling and Special Education, 2011.
4. Jacquelynn A. Malloy teaches and researches at Clemson University, Abstract and Figures, 2019.
5. Connecting Literacy Learners: A Pen Pal Project, Joan L. Rankin. The Reading Teacher Vol. 46, No. 3, Teachers' Choices Best New Children's Books (Nov., 1992), pp. 204-214.
6. Pen Pal Activities as a Learning Tool: Learning from Student Reflections Teresa Lee University of Mississippi, 2021.
7. Pen Pal Letter Exchanges: Taking First Steps toward Developing Cultural Understandings Mary Alice Barksdale, Carol Watson and Eun Soo Park The Reading Teacher, Vol. 61, No. 1 (Sep., 2007), pp. 58-68 (11 pages) Published By: International Literacy Association.

ISSN: 2181-4066
DOI Journal 10.56017/2181-4066

ПЕДАГОГИК ВА ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТЛАР

II-ЖИЛД, 2-СОН

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ
ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ-II, НОМЕР-2

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

VOLUME-II, ISSUE-2

«Педагогик ва психологик тадқиқотлар» электрон журнали 2022 йил 22 декабрь куни № 054834-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: tahririyat@imfaktor.uz

Веб-сайт: www.imfaktor.uz